


2022- yil yanvar-may oylari uchun Toshkent shahrida qurilish ishlari

2022- yilning yanvar-may oylarida Toshkent shahrida jami **12 413,8** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2021-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 111,8 % ni tashkil etdi.




2022- yil yanvar-may oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo‘lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo‘yicha bo‘linadi.



Ma’lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta’mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



2022- yil yanvar-may oylarida mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish ishlari hajmi



- Bino va inshootlar qurilishi
- Fuqarolik obyektlarini qurilishi
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

2022- yil 1-iyun holatiga ko‘ra qurilish sohasida ro‘yxatdan o’tgan jami korxona va tashkilotlar soni 9,5 mingta, faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni esa, 9,1 mingtani tashkil etib, o’tgan 2021- yilning mos davriga nisbatan 665 taga ko‘paygan.

2022- yilning yanvar-may oylarida o’tgan yilning mos davriga nisbatan bino va inshootlar qurilishi ishlari hajmi 113,1 % ni tashkil qilib (jami qurilishdagi ulushi 61,9 %) ni tashkil qildi, fuqarolik obyektlarini qurish 91,5 % ga (jami qurilishdagi ulushi 16,6 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 126,5 % ga (jami qurilishdagi ulushi 21,5 %) Bu qurilish sohasida korxona va tashkilotlar sonining ko‘payishiga asosiy omil bo‘lib xizmat qildi.

Bino va inshootlar qurilishi bo‘yicha qurilish ishlarining eng yuqori ulushi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g’ri kelib, 2021- yilning yanvar-may oylaridagi jami qurilish ko‘rsatkichiga nisbatan 105,5 % ni tashkil etdi.




Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

| | Holatiga ko'ra: | | O'tgan yilga nisbatan, (+,-) |
|------------------------|-----------------|-----------------|------------------------------|
| | 01.06.2021- yil | 01.06.2022- yil | |
| Toshkent shahar | 8473 | 9138 | 665 |
| tumanlar: | | | |
| Uchtepa | 608 | 644 | 36 |
| Bektemir | 180 | 203 | 23 |
| Yunusobod | 1092 | 1122 | 30 |
| Mirzo Ulug'bek | 1080 | 1154 | 74 |
| Mirobod | 782 | 848 | 66 |
| Shayxontoxur | 661 | 725 | 64 |
| Olmazor | 716 | 764 | 48 |
| Sergeli | 467 | 490 | 23 |
| Yakkasaroy | 874 | 931 | 57 |
| Yashnabod | 768 | 855 | 87 |
| Yangihayot | 168 | 234 | 66 |
| Chilonzor | 1077 | 1168 | 91 |



Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining hududlar kesimida ulushi (% da), 01.06.2022- yil holatiga




Ma'lumot uchun: Toshkent shahrida qurilish korxonalari soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan hududlar Chilonzor (12,8 %), Mirzo Ulug'bek (12,6 %) va Yunusobod (12,3 %) tumanlaridir.

2022- yilning yanvar-may oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **4 033,4** mlrd. soʻnni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **142,2 %** ni tashkil qilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **32,5 %** ni tashkil qildi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi, %da



Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Yunusobod tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **53,8 %**), Yangihayot tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **49,4 %**), Chilonzor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **49,5 %**), Uchtepa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **47,5 %**)ga toʼgʼri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalar

- 2021- yil yanvar-may oylari
- 2022- yil yanvar-may oylari


Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2022-yil yanvar-may oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan ko'payish kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **60,3 %**i bajarilib, 2021-yilning yanvar-may oylariga nisbatan **2,2 %** punktga kamaygan.

Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **105,6 %** ni tashkil etgan holda **7 483,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi **7,2 %** ni tashkil etib, **897,4** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan kamayish kuzatilib, **77,3 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **230,9** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, oʼsish surʼati 2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **75,3 %** ni tashkil qilib, jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **1,9 %** ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **12 182,9** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati **112,6 %** ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **98,1 %** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat boʻlgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da





Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2022- yil yanvar-may

61,9 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **61,9 %** yoki **7 682,9 mlrd. so'mni** tashkil etgan.

32,2 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **2 472,5 mlrd. so'mlik** ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **32,2 %** ni tashkil etdi.

56,1 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **4 312,9 mlrd. so'm** yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **56,1 %** ni tashkil etdi.

11,7 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **897,4 mlrd. so'm** yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **11,7 %** ni tashkil etdi.



**Hududlar kesimida qurilish ishlari
2022- yil yanvar-may oylarida**

| | Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m) | O‘sish sur’ati, %da | Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari (mlrd. so‘m) |
|------------------------|--|--------------------------------|--|
| Toshkent shahar | 12 413,8 | 111,8 | 8 144,0 |
| tumanlar: | | | |
| Uchtepa | 830,7 | 103,5 | 466,2 |
| Bektemir | 410,1 | 158,8 | 251,6 |
| Yunusobod | 2 655,3 | 127,3 | 2080,4 |
| Mirzo Ulug‘bek | 1 549,0 | 108,4 | 1023,9 |
| Mirobod | 1 189,1 | 111,1 | 641,5 |
| Shayxontoxur | 875,5 | 106,2 | 647,8 |
| Olmazor | 879,2 | 94,3 | 580,7 |
| Sergeli | 451,3 | 101,0 | 229,3 |
| Yakkasaroy | 988,4 | 105,6 | 608,7 |
| Yashnabod | 1 158,6 | 101,8 | 763,2 |
| Yangihayot | 326,2 | 203,1 | 182,5 |
| Chilonzor | 1 100,3 | 107,5 | 668,0 |

*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo’shgan holda



Toshkent shahrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari,%da

2021- yil yanvar-may

18,9




Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

20,2



Fuqarolik obyektlarini
qurilishi

60,9



Bino va inshootlarni
qurilishi

2022- yil yanvar-may

21,5



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

16,6



Fuqarolik obyektlarini
qurilishi

61,9



Bino va inshootlarni
qurilishi

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

ulushi %da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **32,2 %** ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-may oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **168,3 %** ni tashkil etdi. Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yilning yanvar-may oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **105,5 %** ni tashkil qildi, ulushi esa **56,1 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2021-yilning yanvar-may oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **72,8 %** punktga ko'paydi, **11,7 %** ni tashkil etdi.



■ 2021- yil yanvar-may

■ 2022- yil yanvar-may




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi %da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **46,2 %** ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **79,4 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **53,8 %** ni va 2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **105,1 %** ni tashkil etdi.



2022- yil yanvar-may
oylarida


Toshkent shahrida qurilish ishlari



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **22,7 %** ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **364,4%** punktga ko'paydi. **77,2 %** ulush kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **106,1 %** punktga ko'paydi.





Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-may

Eng yuqori hajm (mlrd. so'm)

Yunusobod t.
2 655,3

1

2

Mirzo Ulug'bek t.
1 549,0

Yashnabod t.
1 189,1

3



Eng kichik hajm (mlrd. so'm)

Yangihayot t.
326,2

1

2

Bektemir t.
410,1

Sergeli
451,3

3



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI



**Toshkent shahar
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (71) 203-88-18(19)

**2022- yil yanvar-may
oylarida**

Toshkent shahrida qurilish ishlari